Anvarov Asliddin Nabijon o‘g‘li
“O‘ZMILLIYBANK” AJ
Qashqadaryo viloyati Bosh boshqarmasi Davlat dasturlarini moliyalashtirish bo‘limi
Bosh mutaxassisi
Asliddinanvarov8@gmail.com
+99890 607-22-30

TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLILIGINI TA’MINLASH VA BOSHQARISH MASALALARI

Annotatsiya: Tijorat banklarining likvidlilik riskini boshqarishda bank aksiyadorlar kengashi, bank boshqaruv kengashi va a’zolari hamda tizimda faoliyat yuritadigan mas’ul xodimlar kollegial ravishda faoliyatni tashkil etishlari zarur bo‘ladi. Albatta, likvidlilik riskini boshqarish jarayonida rasmiy metodologiya bilan birgalikda norasmiy yondashuvlar ham joriy etiladi. Mazkur maqolada tijorat banklari likvidligini boshqarishdagi muammolar va uning qisqacha yechimlari ko‘rib chiqilgan shu bilan birga mamlakatimizda iqtisod tizimida olib borilayotgan islohotlar ham muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, likvidlik, Bazel qo‘mitasi, diversifikatsiya, moliyaviy barqarorlik.

Mamlakat bank tizimining taraqqiyoti tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning muhim omili sifatida baholanadi. Lekin har qanday tadbirkorlik ma’lum xatarliklar bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, avvalo, banklarning faoliyatlari ham qator xatarlar bilan bog‘liq. Tijorat banklarining asosiy xatarlari ularning likvidliklarini ta’minlash bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti tashabbusi bilan 2018 yil Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili deb e’lon qilinishi mamlakatimizning barcha tashkilotlari, korxonalari va muassasalarini o‘z faoliyatiga yangicha yondashuvni amalga oshirishga rag‘batlantirdi. O‘zbekistonning deyarli barcha banklari bundan mustasno emas. Shu bilan birga unutmaslik kerakki, mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish, oddiy bo‘lmagan iqtisodiy vaziyatda har bir tijorat banki uchun uning likvidligini doimiy ravishda ta’minlash xavf-xatari saqlanib keladi.

Shuningdek, 2020 – 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining kredit portfelini va risklarini boshqarishni takomillashtirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan .

Ayni vaqtda, respublikamiz tijorat banklarining likvidliligini ta’minlash borasida yechimini topmagan bir qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, banklarda transformatsiya riskining chuqurlashib ketganligi ularning likvidliligiga nisbatan kuchli salbiy ta’sirni yuzaga keltirdi. Buning ustiga, koronavirus pandemiyasi sababli 2020 yilning 1 aprelidan 1 oktyabriga qadar tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar bo‘yicha to‘lovlarni to‘xtatilganligi banklarning likvidliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bundan tashqari, tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasining past ekanligi ular faoliyatidagi kredit riski darajasini pasaytirish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizda tijorat banklarini tartibga solish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Tijorat banklari likvidliligini tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajriba yaqindan o‘rganildi va ma’lumotlar bazasi yig‘ildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Bank likvidligi – uning faoliyatining kompleks sifatiy tavsifi bo‘lib, bankning moliyaviy barqarorligini aks ettiradi. Tijorat bankining likvidligi – uning o‘zida mavjud pul zaxiralari (resurslari) hisobiga mijozlari oldidagi har qanday majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara oli- shidir.

Likvidlik majburiyatlarning muddatlari va hajmi bo‘yicha bank aktivlari va passivlari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat darajasi bilan belgi- lanadi.

Boshqacha aytganda, bank likvidligini o‘z majburiyatlari bo‘yicha yo‘qotishlarsiz va o‘z vaqtida kreditorlar, omonatchilar va boshqa hamkor sheriklar oldida nafaqat ularning mablag‘lari bo‘yicha javob bera olish qobiliyati, deb ta’rif- lash mumkin. Innovatsion g‘oya va texnologiyalarni ta’minlash maqsadida faol tadbirkorlikni unga zarur mablag‘larni o‘z vaqtida taqdim etish bilan qo‘llab-quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi.

XULOSA

Bank likvidliligi bilan bog‘liq yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilishdan kelib chiqib, likvidlik xatarlarini kamaytirish bo‘yicha quyida keltirilgan choralar ko‘rishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-bank kapitalizatsiyasini yanada oshirish bo‘yicha ishlarni davom ettirish.

-yirik va bir-biri bilan bog‘liq mijozlarda aktivlar to‘planishini kamaytirish maq- sadida bank mijozlari diversifikatsiyasini kegaytirish.

-korporativ bo‘lmagan mijozlarga iste’mol kreditlar ajratish bo‘yicha ishlarni yanada kengaytirib borish va mahsullar diversifikatsiyasini kengaytirish.

-bankning jalb qilinayotgan kredit investisiyalari ishtirokidagi depozitlar o‘zaro aloqa sini ta’minlash maqsadida bankning islom bankingi bo‘yicha bo‘linmasini ochishning maqsadga muvofiqligini ko‘rib chiqish.

Yuqorida qayd etilgan amaliy va nazariy xulosalarni tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda joriy etilishi ularning raqamli iqtisodiyotda samaradorligi va moliyaviy barqarorligini oshirish hamda aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlshga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat- mirziyeevning-oliy-22-12-2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992- sonli “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”gi farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
3. B.B. Izbosarov “O‘zbekistonda tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning amaldagi holati tahlili” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil 9-b
4. S.J. Gadoev “Tijorat banklarining likvidliligini ta’minlashning dolzarb masalalari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2022 2-b
5. Ларинова И. Управление активами и пассивами в коммерческом банке. М: “Консалтбанкир”, 2023-272 с; Лаврушин О. Банковское дело. Учебник. 2-е издание. М: Финансы и статистика, 2015-672 с
6. Жарковская Е.П. Банковские дело. Учебник.-М.: 2006, Стр. 345-346.
7. Банковское дело. Учебник. Под редакции О.И.Лаврушин, -М.:, 2005. Стр. – 260.
8. Банковсое дело: Управление и технологии. Учебное пособие для вузов. Под редакции А.Тавасиева. –М.:, 2011. Стр. – 388.

WORDLY
KNOWLEDGE